BG Pulse Journal USA
ISSN:1947-2536 http://www.bgpulseusa.com/index.php/bg

“QORAKO‘Z MAJNUN” HIKOYASIDA MOTIVLAR TIZIMI: SADOQAT VA XIYONAT POETIKASI

Mirzayeva Maftuna Sherali qizi
Osiyo Texnologiyalar Universiteti
O’zbek tili va adabiyoti yo’nalishi
1-kurs magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.20562759

Annotatsiya. Ushbu maqolada Said Ahmadning “Qorako‘z Majnun” hikoyasida sadoqat va xiyonat motivlarining badiiy talqini tahlil qilinadi. Asarda motiv poetikasining o‘ziga xos xususiyatlari, sadoqat motivining yetakchi o‘rni hamda uning yolg‘izlik, mehr-oqibat va xiyonat motivlari bilan o‘zaro bog‘liqligi yoritiladi. Qorako‘z obrazi orqali mutlaq vafo va insoniylik g‘oyalari ifodalansa, Bo‘rixon obrazi misolida milliy, diniy va ma’naviy qadriyatlarga xiyonat masalasi ochib beriladi. Shuningdek, hikoyadagi ramziylik, intertekstuallik va psixologik tasvir vositalarining motiv poetikasini shakllantirishdagi ahamiyati ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijasida asarda sadoqat va xiyonat motivlari inson ma’naviy olamini ochuvchi muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo‘lishi asoslanadi.
Kalit so‘zlar: motiv, motiv poetikasi, sadoqat motivi, xiyonat motivi, Qorako‘z obrazi, Bo‘rixon obrazi, ramziylik, intertekstuallik, vafo, ma’naviy qadriyatlar.

Аннотация. В данной статье анализируется художественная интерпретация мотивов верности и предательства в рассказе Саид Ахмад «Коракўз Мажнун». Освещаются особенности поэтики мотивов в произведении, ведущая роль мотива верности, а также его взаимосвязь с мотивами одиночества, милосердия и предательства. Через образ Коракўза раскрываются идеи безусловной преданности и человечности, тогда как в образе Борихона отражается проблема измены национальным, религиозным и духовным ценностям. Особое внимание уделяется роли символизма, интертекстуальности и психологизма в формировании мотивной структуры рассказа. В результате исследования обосновывается, что мотивы верности и предательства выступают важными художественными средствами раскрытия духовного мира человека и авторской концепции произведения.
Ключевые слова: мотив, поэтика мотива, мотив верности, мотив предательства, образ Коракўза, образ Борихона, символизм, интертекстуальность, верность, духовные ценности

Abstract. This article analyzes the artistic interpretation of the motifs of loyalty and betrayal in the short story Qorako‘z Majnun by Said Ahmad. The study examines the peculiarities of motif poetics in the work, highlighting the central role of the motif of loyalty and its connection with the motifs of loneliness, compassion, and betrayal. Through the image of Qorako‘z, the author conveys the ideas of unconditional fidelity and humanity, while the character of Borikhon embodies betrayal of national, religious, and spiritual values. The article also explores the significance of symbolism, intertextuality, and psychological portrayal in shaping the motif system of the story. The research concludes that the motifs of loyalty and betrayal serve as important artistic devices for revealing the spiritual world of individuals and the author's ideological conception.

Keywords: motif, motif poetics, loyalty motif, betrayal motif, Qorako‘z, Borikhon, symbolism, intertextuality, fidelity, spiritual values.

Motiv — badiiy asarda takrorlanib keladigan, syujet rivojiga xizmat qiladigan, muayyan g‘oya yoki mazmunni ifodalovchi eng kichik semantik birlikdir. Motiv qahramonning harakati, voqea, holat, predmet yoki obraz shaklida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun "Qorako‘z Majnun" hikoyasining motiv poetikasi sadoqat motivi atrofida shakllanib, yolg‘izlik, mehr va hiyonat motivlari bilan boyitilgan motivlar tizimini tashkil etadi. Bu motivlar asarning emotsional ta'sir kuchini oshirib, muallif g‘oyasini chuqurroq ochib beradi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda motivlarni o‘rganish uchun yagona asosiy manba sifatida A.N. Veselovskiy asarlari xizmat qiladi. “Veselovskiyda motiv tarixiy poetika nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi”. [2] Tarixiy poetikaning “She’riyat tili va nasr tili” [1] bo‘limida olim eng sodda poetik formulalar, qiyoslashlar, ramzlar, ya’ni motivlar deb ataladigan hodisalarning paydo bo‘lish mexanizmini tahlil qiladi. Yangi o‘zbek adabiyotida motivlarning ifoda shakllari turli ko‘rinish va obrazlarda namoyon bo‘ladi. Xususan, yozuvchi Said Ahmad asarlaridagi motivlar rang-barangligi tadqiq qilinishga molikdir.

Said Ahmad urush va urushdan keyingi davr insonlari hayoti, ularning taqdiri va fojialariga bag沃shlangan asarlari orasida Qorako沃z majnun hikoyasi o沃zining dramatizmi va falsafiy teranligi bilan ajralib turadi. Maqolada asarning tub mag沃iga singdirilgan sadoqat va xiyonat mavzusi, uning inson taqdiriga ko沃satgan halokatli ta殿iri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Adabiyotshunoslikda motiv syujetning tarkibiy qismi bo‘lib, asarning mazmunini ochishga xizmat qiladi. Bir asarda bir nechta motivlar uchrashi mumkin. Said Ahmadning "Qorako沃z Majnun" hikoyasi insoniy sadoqat va ma'naviy tubanlik ya'ni xiyonat motivini hayvonlar va insonlar qiyosi orqali ochib beruvchi asardir.Asarning asosiy motivi — it Qorako‘zning egasiga bo‘lgan cheksiz sadoqatidir. Qorako‘z egasi vafot etganidan keyin ham uni kutishda davom etadi. Bu motiv syujet davomida takrorlanib, asarning g‘oyaviy markazini tashkil qiladi. Yozuvchi asarda xiyonat motivini shaxsiy manfaat va nafs yo沃ida onani, o沃ligini va Vatanini unutishdek og沃r illat sifatida talqin etadi. Hikoyada xiyonat timsoli sifatida Bo沃ixon obrazi gavdalanadi. Uning ruhiyati tahlil qilinganda, nafaqat oilasiga (yolg沃z onasi Saodat ayaga), balki o沃z Vataniga, qadriyatlariga ham begonalashgani ma殿um bo沃adi. *"... Bo‘rixon xotini, qaynonasi bilan har kuni cherkovga borib cho‘qinadigan bo'ldi. Qaynotasi o‘lgandan so‘ng uning o‘miga cherkov qo‘ngiroqchisi qilib qo‘yishdi. Nimaiki ish bo‘lsa, barini u bajaradigan bo‘ldi. Piligi so‘xta bo‘lgan shamlaming uchini qaychilaydi, yonib tamom bo'lganlarini almashtiradi. 1970-yilning kech kuzida bir musulmon bolasi dindan chiqdi".* [3;97-98]

Parchada xiyonat motivi bevosita oilaviy yoki muhabbatdagi xiyonat emas, balki diniy va milliy o‘zlikka xiyonat motivi sifatida namoyon bo‘ladi. Qahramonning cho‘qinishi va cherkov xizmatiga kirishi uning avvalgi diniy e'tiqodidan voz kechishi orqali diniy-ma'naviy xiyonat motivini yuzaga chiqaradi. Asarda Bo‘rixonning bu obrazi orqali o‘z dinidan voz kechib boshqa dinni qabul qilishini an'anaviy qadriyatlar nuqtayi nazaridan o‘z e'tiqodiga xiyonat sifatida baholash mumkin. Ko‘rinib turibdiki, xiyonat motivi – milliy-diniy qadriyatlarga sadoqatsizlik shaklida namoyon bo‘ladi. Bo沃ixonning urush yillarida o沃z xalqini tashlab ketishi, o沃ga yurtlarda qolib, hatto ismini va dinini o沃zgartirishi eng og沃r fojia sifatida qoralanadi. Xiyonatning og沃iqli zarbasini yumshatuvchi va insoniylikni saqlab qoluvchi kuch bu it obrazi Qorako‘zdir. Unga xos sadoqat va oqibat motivi asar sistemasida quyidagicha ifoda etiladi: *"Shu bilan ovunib yuribman. Qayoqqa borsam , yonimda. Bir qadam nari ketmaydi. Menga ayt-chi, ukalaring, singillaring haftada bir xabar olsa oladi, olmasa yo’q. Kasalxonada yotganimda shu itgina ko‘kragini qorga berib, hovlida bir oy deraza tagida yotgan. Senlar qo‘ni-qo‘shnining qistovi bilan bir-ikki xabar oldilaring, xolos*". [3;90]

Asarda yozuvchi sadoqat va hiyonat motivi ifodasida intertekstuallik usulini ham qo‘llaydi. Hadisi sharifdan iqtibos "Ashobi kahf"ning vafodor iti Jannatga kiradigan o沃 nafar hayvondan biri ekanligi eslatiladi. Bu orqali yozuvchi vafodorlik oliyjanob fazilat ekanligini, hatto hayvon ham

sadoqati uchun ulug汴anishini ta'kidlaydi. Qur'oni Karimdan oyat (*Baqara surasi, 217-oyat*) dindan qaytish, ya'ni xiyonatning oxiri halokat ekanligidan ogohlantiruvchi intertekst esa syujet tarkibidagi xiyonat motivini ravshanlashtiradi. Shuningdek, Qorako汴z obrazi inson ko汴satgan xiyonat fojiasini yanada bo汴ttirib, uning naqadar jirkanch illat ekanligini ko汴satib beruvchi ko汴rgu vazifasini o汴aydi. Adib xiyonat ko汴shasiga kirgan kimsaning ichki reaksiyasini, uning ruhiy holatini mahorat bilan tasvirlaydi. Personajlarning monologlari va xatti-harakatlaridagi nomutanosiblik ular ruhiyatidagi inqirozdan dalolat beradi. Asarda ramziylik (simvolizm) yetakchi o汴in tutadi. Qorako汴z shunchaki jonivor emas, u mehr-oqibat va mutlaq sadoqat ramzidir. Insonlar dunyosidagi xiyonat fonida hayvonning sodiqligi va oqibati fojiaviy kontrast hosil qiladi.

Xulosa o‘rnida aytish lozimki, Said Ahmadning “Qorako‘z Majnun” hikoyasi motivlar tizimining serqatlamligi va badiiy mukammalligi bilan ajralib turadi. Asarda sadoqat motivi yetakchi o‘rin egallab, syujetning g‘oyaviy va emotsional markazini tashkil etadi. Qorako‘z obrazi orqali vafo, mehr-oqibat, insoniylik kabi yuksak axloqiy fazilatlar ulug‘lansa, Bo‘rixon obrazi misolida xiyonatning turli ko‘rinishlari — ona, Vatan, din va ma’naviy qadriyatlarga sadoqatsizlik holatlari badiiy talqin etiladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, hikoyada sadoqat va xiyonat motivlari o‘zaro kontrast asosida qurilib, asarning falsafiy mazmunini chuqurlashtiradi. Muallif ramziylik, intertekstuallik va psixologik tasvir vositalaridan unumli foydalanib, motivlarning badiiy-estetik imkoniyatlarini kengaytirgan. Ayniqsa, Qorako‘z timsoli insoniy fazilatlarning ramziga aylansa, Bo‘rixon obrazi ma’naviy tanazzul va o‘zlikdan begonalashishning fojiaviy oqibatlarini ifodalaydi.

Demak, “Qorako‘z Majnun” hikoyasida motivlar tizimi nafaqat syujetni harakatlantiruvchi unsur, balki asarning g‘oyaviy-badiiy konsepsiyasini shakllantiruvchi muhim poetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Hikoya bugungi kunda ham sadoqat, vafodorlik va ma’naviy qadriyatlarni asrash g‘oyalarini targ‘ib etuvchi, tarbiyaviy va estetik ahamiyatga ega badiiy asar sifatida o‘z qimmatini saqlab qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Попова А. М. Изучение мотивов в эпических произведениях // https://cyberleninka.ru/article/v/izucheniemotivov-v-epicheskih-proizvedeniyah (2018. 16 нояб.).
2. Силантьев И. В. 1999. Теория мотива в отечественном литературоведении и фольклористике. Очерк историографии // http://www.ruthenia.ru/folklore/silantiev1.htm (2018. 17 нояб.).
3. Said Ahmad. Qorako‘z Majnun. Hikoyalar to‘plami. - Toshkent.: "O‘zbekiston", 2013
4. Sharafiddinov O. Ijodning yorug汴yo汴lari. Toshkent: G汴afur G汴ulom nomidagi Adabiyot va san殿t nashriyoti, 2001.
5. Qo汴hjonov M. Qalb pokligi qidirib... Toshkent: O汴zbekiston, 1998.
6. Karimov N. XX asr o汴zbek adabiyoti manzaralari. Toshkent: O汴qituvchi, 2008.